

ZAMONAVIY SHAROITDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KONSENTRATSIYA QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Isroilova Xusnida Adilovna

ADU erkin tadqiqotchisi

E-mail: israilovaxusnida@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda kontsentratsiya qobiliyatini rivojlantirish pedagogik zaruriyat ekanligi, kontsentratsiya qobiliyatining turlari va kontsentratsiya qobiliyatiga ta'sir qiluvchi omillar xususida fikr yuritiladi.

Tayanch so'z va iboralar: kontsentratsiya, diqqat, maktabgacha yosh davri, davlat talablari, qobiliyat, individual rivojlanish, xotira, diqqat.

РАЗВИТИЕ КОНЦЕНТРАЦИОННОЙ СПОСОБНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ

Исраилова Хуснида Адиловна

независимый исследователь АГУ

Электронная почта: israilovaxusnida@gmail.com

Аннотация: В данной статье развитие способности к концентрации внимания у детей дошкольного возраста – педагогическая необходимость, рассмотрены виды способности к концентрации, а также факторы, влияющие на способность к концентрации.

Ключевые слова и фразы: концентрация, внимание, дошкольный возраст, государственные потребности, способности, индивидуальное развитие, память, внимание.

DEVELOPMENT OF CONCENTRATION ABILITY OF PRE-SCHOOL CHILDREN IN MODERN CONDITIONS

Israilova Husnida Adilovna

Independent researcher of ASU

E-mail: israilovaxusnida@gmail.com

Abstract: In this article, the development of the ability to concentrate in preschool children is a pedagogical necessity, the types of the ability to concentrate, and the factors influencing the ability to concentrate.

Key words and phrases: concentration, attention, preschool age, state requirements, ability, individual development, memory, attention.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlarining tahlili maktabgacha ta'lim sohasidagi har bir islohot negizida ilmiy tadqiqotlar yotganini kuzatish mumkin. Bolalarning har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda ta'lim mazmuniga ilmiy yondashib, 2023-yilda respublika miqyosida bolalarning 74,0% maktabgacha ta'limga qamrab olingan. [1] Xususan, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori [2] qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori [3] da mavjud

tizimli kamchiliklar, maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan sabablar ko'rsatilgan.

“O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi”da esa “...maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish” masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yildi”. [4] Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan yuqoridagi Qaror va Farmonlar uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat hamda nodavlat tarmog'ini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlashda dasturilamalga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan Jahon bankining “Bolalarni erta yoshdan rivojlantirishni takomillashtirish” loyihasi mablag‘lari hisobidan Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun bolalar maydonchalarini va ularni yetkazib berish hamda o‘rnatish xizmatlarini xarid qilish bo‘yicha kontrakt to‘lovlarini amalga oshirish rejalashtirgan.[5] Shuningdek, UNICEF va Maktabgacha ta’lim agentligi o‘rtasida imzolangan maktabgacha ta’limni universal qamrab olishga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyat yo‘lga qo‘yilgan.[6]

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kontsentratsiyani rivojlantirishning pedagogik zarurati maktabgacha ta’lim pedagogik amaliyotida yangi yondashuvlar, texnologiyalarning keng va izchil joriy etilishi bilan izohlanadi.

Diqqatni jamlagan inson butun aqliy qobiliyatini ayni vaqtda talab qilinadigan yoki kerakli faoliyatga yo'naltiradi. Kontsentratsiya ko'plab ilmiy adabiyotlarda “kontsentratsiya qobiliyati” shaklida qo'llaniladi. Kontsentratsiya qobiliyati inson diqqatini jamlash orqali ma'lum bir faoliyat yoki maqsadga qanchalik samarali va vaqt davomida e'tiborini qarata olishini ko'rsatadi. Yuqori darajadagi konsentratsiya qobiliyatiga ega bo'lgan har bir inson ko'p vaqt sarflamagan hamda ortiqcha yuklama his qilmasdan diqqatini jamlashi mumkin.

Ko'plab izlanishlarda maktabgacha yoshdagi bolalardagi kontsentratsiya qobiliyati ulardagi bir qator qobiliyatlarning rivojlanishi uchun asos bo'lishi ta'kidlab

o‘tilgan. Shunday tadqiqotlardan birida maktabgacha ta’limda bolalarning ijtimoiy intellektini rivojlantirish jarayoni ularning aqliy rivojlanishi, turli ruhiy jarayonlar – diqqati, axborotni tushunishi, mulohaza yurita bilishi, idrok etish, ma’lumotlarni esda saqlash, fikrlash va muammoni hal qila olishi bilan tavsiflanishi keltirib o‘tilgan.[7]

Ilmiy adabiyotlarda bolalarda kontsentratsiya qobiliyatini turlari bo‘yicha turli tavsiflar mavjud. Quyidagi jadvalda kontsentratsiya qobiliyatining turlari keltirib o‘tilgan (1-jadvalga qarang):

1-jadval

KONTSENTRATSIYA QOBILIYATINING TURLARI

Kontsentratsiya qobiliyati turlari	TAVSIFI
<i>Selektiv kontsentratsiya</i>	Diqqatni ongli ravishda ma’lum bir faoliyatga, ma’lumotga yoki rag‘batga qaratish va chalg‘ituvchi ogohlantirishlarni to‘siq qo‘yish qobiliyati
<i>Taqsimlangan kontsentratsiya</i>	Diqqatni bir vaqtning o‘zida bir nechta faoliyat yoki ma’lumotlarga qaratish qobiliyati. Diqqat turli vazifalar yoki ma’lumotlar o‘rtasida taqsimlanadi
<i>Barqaror konsentratsiya</i>	Diqqatni chalg‘itmasdan uzoq vaqt davomida ma’lum bir vazifa yoki faoliyatga qaratish qobiliyati
<i>O‘zgaruvchi kontsentratsiya</i>	Kontsentratsiyaning turli vazifalar yoki ma’lumotlar o‘rtasida moslashuvchan tarzda almashish va har biriga diqqatni jamlash qobiliyati
<i>Selektiv-taqsimlangan kontsentratsiya</i>	Diqqat ongli ravishda bir nechta tanlangan faoliyat yoki ma’lumotlarga qaratilgan bo‘lib, bunda selektiv va taqsimlangan konsentratsiyaning kombinatsiyasi hosil bo‘ladi
<i>Mo‘ljallangan kontsentratsiya</i>	Diqqatni chalg‘itmasdan yoki to‘xtatmasdan, to‘liq bitta faoliyat yoki faoliyatga qaratadigan chuqur va intensiv konsentratsiya shakli
<i>Tashqi kontsentratsiya</i>	Diqqatni atrof-muhitdagi tashqi ogohlantirishlarga, masalan, vizual yoki eshitish signallariga qaratish qobiliyati
<i>Ichki kontsentratsiya</i>	E’tiborni fikrlar, g‘oyalar yoki tushunchalar kabi ichki rag‘batlantirish yoki aqliy jarayonlarga qaratish qobiliyati
<i>Sensorik kontsentratsiya</i>	Diqqatni vizual, eshitish yoki taltil stimullari kabi muayyan hissiy ogohlantirishlarga qaratish qobiliyati
<i>Kognitiv</i>	Muammoni hal qilish, rejalashtirish yoki analitik fikrlash kabi murakkab

Konsentratsiyani o'lchash ham ko'plab ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning obykti sifatida tadqiq qilingan. Konsentratsiya standartlashtirilgan testlar (diqqat va yuklama testlari) yordamida o'lchanadi, ular ma'lum vaqt davomida muayyan vazifalarni bajarish qobiliyatini aks ettiradi. Baholash bajarilgan topshiriqlar soni va yo'l qo'yilgan xatolarga asoslanadi.[8]


Konsentratsiya qobiliyatini rivojlantirishning tibbiy jihatlar ham ko'plab tibbiyot, pedagogik tadqiqotlarda tadqiq qilib o'tilgan. N.A.Avdeeva [9] o'z tadqiqotida konsentratsiya qobiliyatini rivojlantirishning tibbiy jihatlarini quyidagicha umumlashtirib o'tgan:

- Omega-3 yog' kislotalari va vitaminlarga, ayniqsa B vitaminiga bo'lgan ehtiyojni qondiradigan oziq-ovqat mahsulotlari;
- konsentratsiya qobiliyatini rivojlantiruvchi mashqlar: meditatsiya, diqqatni jamlash o'yinlari (yakka yoki guruhda);
- kunduzgi uyqu (10-30 minutgacha);
- dam olish usullari (avtogenik trening, meditatsiya, yoga, ko'p uyqu);
- o'rtacha jismoniy harakatlar talab qiluvchi sport o'yinlari;
- tanada glyukoza miqdorining me'yorda bo'lishi. Glyukoza miqdorining kam bo'lishi bolalarda konsentratsiya qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Diqqatni jamlagan inson butun aqliy qobiliyatini ayni vaqtda talab qilinadigan yoki kerakli faoliyatga yo'naltiradi. Konsentratsiya ko'plab ilmiy adabiyotlarda "konsentratsiya qobiliyati" shaklida qo'llaniladi. Konsentratsiya qobiliyati inson diqqatini jamlash orqali ma'lum bir faoliyat yoki maqsadga qanchalik samarali va vaqt davomida e'tiborini qarata olishini ko'rsatadi. Yuqori darajadagi konsentratsiya qobiliyatiga ega bo'lgan har bir inson ko'p vaqt sarflamagan hamda ortiqcha yuklama his qilmasdan diqqatini jamlashi mumkin.

Quyidagi rasmda konsentratsiya qobiliyatiga ta'sir etuvchi omillar keltirib o'tilgan:

KONTSENTRATSIYA QOBILIYATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR



1-

rasm. Konsentratsiya qobiliyatiga ta'sir qiluvchi omillar.

Agar ta'lim jarayonida 3-4 yoshli bolalar diqqati tabiat, kishilar to'g'risidagi aniq faktlarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta'lim berishda asosiy e'tibor muhim bog'liqliklar va munosabatlarga, ulardagi oddiy tushunchalarni shakllantirishga qaratiladi.[10]

Tarbiyachi faoliyat bilan shug'ullanishi uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tishi lozim. Bir qator faoliyat turlari qatoriga "o'ziga yuklangan vazifani bajarishi uchun bolalarda o'sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'ota olishi, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o'stirishi, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi" [11] ham kiritilgan.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, konsentratsiya qobiliyati bir-biri bilan o'zaro bog'langan miya tuzilmalarining yaxlit tizimi faolligi bilan ta'minlanadi. Konsentratsiya qobiliyati to'g'ridan-to'g'ri mayl bilan bog'langan holatni tavsiflab, holatini ichkaridan ifodalaydi hamda mayl ta'siri ostida voqeyiy atrof-muhitni idrok qilishda hosil qilinadigan ma'lum obraz yoki taassurotning ajralishi sodir bo'ladi. Konsentratsiya qobiliyati inson hayoti va faoliyatida ko'plab turli xil vazifalarni bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli Qarori / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018 y., 06/18/5483/1594-son; 01.01.2020 y., 07/20/4555/4257-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli Qarori / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 37-son, 984-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019 y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 dekabrdagi „Xalqaro taraqqiyot uyushmasi, Ta’limda global hamkorlik tashkiloti hamda Natijalarga asoslangan yondashuvlar uchun global hamkorlik tashkiloti ishtirokidagi “Bolalarni erta yoshdan rivojlantirishni takomillashtirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘grisida“ gi 789-son Qarori// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/en/docs/-5169331https://aniq.uz/yangiliklar/2023-yilda-respublika-miqyosida-bolalarning-74-0-maktabgacha-talimga-qamrab-oligan>
5. Авдеева Н.А. Некоторые аспекты физического развития и психологического статуса школьников. Наука и современность 2411.1 (2014): 117.
6. Ruziyeva G.A. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiy intellektini rivojlantirish: pedagog. fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – T.: 2023. – B. 10 (43).

7. Hagemester C., Westhoff K.: Konzentrationsdiagnostik. In: L. Hornke, M. Amelang, M. Kersting: Enzyklopädie der Psychologie. (= Psychologische Diagnostik. Band 3: Leistungs-, Intelligenz- und Verhaltensdiagnostik). Hogrefe, Göttingen 2011.
8. Hasanboeva O.U. va b. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi // O'quv qo'llanma. – T.: “Ilm ziyo” nashriyoti, 2011. – B. 11 (186).
9. <https://mpe.uz/post-detail/posts/news/2738>